

**INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH 1–2-SINF
O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHNING METODIK USULLARI**

Saydaliyeva Mashhura Anvarjon qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Xorijit tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Email: mashhura.saydaliyeva@bk.ru

Tel: +998941521918

UDK: 37.1174

Azimov Samandar Murodjon o'g'li

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Xorijit tillar kafedrasida bakalavr talabasi

Email: azimovsamandar196@gmail.com

Tel: +998942422220

Annotatsiya: Ushbu maqola 1–2-sinf o'quvchilarida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning metodik usullarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich ta'lim jarayonida og'zaki nutqni samarali shakllantirish usullarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishdir. Maqolada og'zaki nutq kompetensiyasi tushunchasi, uning tarkibiy elementlari, dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv va faol metodlar, shuningdek, o'quvchilarning nutq malakasini baholash mezonlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari pedagoglarga darslarni rejalashtirishda va og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali strategiyalarni tanlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Og'zaki nutq kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, metodik usullar, dars jarayoni, nutq malakasini rivojlantirish, interaktiv metodlar, pedagogik tahlil

Saydaliyeva Mashhura Anvarjonov kizi

Namangan State Pedagogical Institute

Senior Lecturer of the Foreign Languages Department

E-mail: mashhura.saydaliyeva@bk.ru

Tel: +998941521918

UDK: 37.1174

Azimov Samandar Murodjon ugli

Namangan State Pedagogical Institute

Bachelor student of the Foreign Languages Department

E-mail: azimovsamandar196@gmail.com

Phone: +998942422220

Annotation: *This article is devoted to the analysis of methodological approaches for developing oral speech competence in 1st–2nd grade students. The aim of the research is to identify effective methods for forming oral speech in the process of primary education and to implement them in practice. The article examines the concept of oral speech competence, its structural elements, interactive and active teaching methods used in the classroom, as well as the criteria for assessing students' speaking skills. The results of the research help teachers choose effective strategies for lesson planning and for developing students' oral speech.*

Keywords: *Oral speech competence, primary education, methodological approaches, learning process, development of speaking skills, interactive methods, pedagogical analysis.*

Сайдалиева Машхура Анваржонов кизи

Наманганский государственный педагогический институт

Старший преподаватель кафедры иностранных языков

E-mail: mashhura.saydaliyeva@bk.ru

Тел: +998941521918

УДК: 37.1174

Азимов Самандар Муроджон угли

Наманганский государственный педагогический института

Студент бакалавриата кафедры иностранных языков

E-mail: azimovsamandar196@gmail.com

Тел: +998942422220

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу методических способов развития компетенции устной речи у учащихся 1–2 классов. Цель исследования - определить эффективные методы формирования устной речи в процессе начального образования и внедрить их в практику обучения. В статье рассматриваются понятие компетенции устной речи, её структурные элементы, интерактивные и активные методы, применяемые в учебном процессе, а также критерии оценки речевых навыков учащихся. Результаты исследования помогают педагогам выбирать эффективные стратегии при планировании уроков и развитии устной речи учащихся.*

Ключевые слова: *компетенция устной речи, начальное образование, методические способы, учебный процесс, развитие речевых навыков, интерактивные методы, педагогический анализ.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish jarayoni kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilmoqda. O'quvchilarning amaldagi o'quv faoliyatlarini kuchaytirish ularda nutq ko'nikmalarni shakllantirishni osonlashtiradi. Nutq ko'nikmasini amaliy jihatdan qo'llay olish ularda asta-sekinlik bilan bilim ko'nikmalarini shakllantirib beradi. Og'zaki nutq kompetensiyasi jarayonini shakllantirish uchun o'quvchilarda tilni amaliy qo'llash, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda erkin ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida 1–2-sinf o'quvchilarining og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda til o'rganish jarayoni ularning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va qabul qilish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli dars jarayonida samarali metod va texnologiyalarni tanlash, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash hamda ularning nutqiy faolligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Og'zaki nutq kompetensiyasi o'quvchilarning tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini o'z ichiga olib, ularning kommunikativ salohiyatini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar berilgan o'quv materiallarini tahlil qilib tushunchalarga ega bo'lishlari ushbu jarayonlarni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shu jarayonda interaktiv metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi. Masalan, "Rol o'ynash" (Role Play) metodi orqali o'quvchilar berilgan vaziyatlarda ingliz tilida suhbatlashadi, o'z fikrlarini erkin ifodalaydi va bir-birining nutqini tinglab tushunishga o'rganadi. Shu bilan birga, "Savol-javob" (Q&A) yoki "Juftlashib ishlash" (Pair Work) metodlari o'quvchilarning fikr almashishi, tilni amaliy qo'llashi va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Masalan: darsda o'quvchilar "Mening sevimli mashg'ulotim" mavzusida juftlar bo'lib bir-biriga savol beradi va javob oladi. Shu orqali ular tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, talaffuz va lug'at boyligini oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish jarayonida interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, dialogik mashqlar va kommunikativ vaziyatlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam baholab borish, ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, boshlang'ich sinflarda "Storytelling" (hikoya qilish) metodini qo'llash mumkin. O'quvchilarga qisqa matn yoki rasmi hikoya beriladi va ular o'z so'zlari bilan ingliz tilida hikoya qiladilar. Bu jarayon quyidagi jihatlarni rivojlantiradi:

1. Nutqiy faoliyatni faollashtiradi – o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalaydi, gapirishga undaladi.

2. Talaffuz va lug'at boyligini oshiradi – yangi so'zlar va iboralarni amalda qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi.

3. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi – sinfdoshlari hikoyani tinglab, asosiy mazmuni tushunishga harakat qiladi.

4. Kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi – o'quvchilar bir-biri bilan savol-javob qilish orqali muloqot qiladi.

Storytelling metodi nafaqat og'zaki nutqni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi. U darsni qiziqarli va interaktiv qiladi, shu bilan birga o'quvchilarda o'z fikrini tartib bilan ifodalash odatini shakllantiradi. Bu metodni boshqa interaktiv texnologiyalar bilan birlashtirish, masalan, rol o'ynash yoki juftlikda ishlash orqali, o'quvchilarning nutqiy salohiyatini yanada oshirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Jalolov J.J. "Chet tili o'qitish metodikasi". Jalolovning ushbu manbasi og'zaki va yozma nutq faoliyatining Jalolov J.J. strukturaviy aspektlarini, ya'ni operatsion va motivatsion jihatlarni yoritadi. Operatsion aspekt leksika, grammatika va talaffuz birliklarini qo'llash orqali nutqni shakllantirishni o'z ichiga oladi, motivatsion aspekt esa retsiyent va produtsent o'rtasidagi muloqotni tahlil qiladi. Bu manba boshlang'ich sinflarda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun metodik asos sifatida ishlatiladi.

Soatov²³ A.J. Diqqat va uning ta'limiy ahamiyati nomli maqolasida Soatovning tadqiqoti diqqat tushunchasi va uning psixologik asoslarini yoritadi. Diqqatning aqliy jarayonlar samaradorligini ta'minlovchi vosita sifatidagi roli, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati tushuntirilgan. Bu manba interaktiv metodlar va dars jarayonida diqqatni rag'batlantirish strategiyalarini asoslashda foydalidir.

Saydaliyeva²⁴ M.A. manbasida boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llashning amaliy ahamiyatini ochib beradi. U o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini faollashtirish, darslarda ishtirokini oshirish va tilni amaliy qo'llash malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muallifa tomonidan tavsiya etilgan metodlar darslarni qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi, bu esa og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda pedagoglarga amaliy ko'rsatma beradi.

Ushbu natijalar asosida darslarni rejalashtirishda kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlarni uyg'un qo'llash boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun asosiy strategiya sifatida qaraladi. Bu orqali o'quvchilarda til o'rganish ko'nikmasi yanda natijalarga boy tarzda tashkil topadi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich 1–2-sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish jarayonida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish darslarda qo'llaniladigan interaktiv metodlarga bevosita bog'liqdir. O'quvchilarning nutqiy faoliyatini oshirish

²³ Soatov A.J. Diqqat va uning ta'limiy ahamiyati // Pedagogika va psixologiya masalalari. – Toshkent, 2018. – B. 45–49.

²⁴ Saydaliyeva M.A. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlar // Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy maqolalari. – Namangan, 2020. – B. 12–18.

uchun darslarni rol o'yinlari, juftlikda ishlash, hikoya qilish (storytelling) va dialogik mashqlar bilan boyitish samarali natija beradi (Jalolov, 2012: 45–47).

Shuningdek, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam baholash orqali ularning rivojlanish darajasi aniqlanadi va individual yondashuvlar qo'llaniladi. Bu jarayon o'quvchilarning diqqat va e'tiborini rag'batlantiradi, tilni amaliy qo'llash, fikrni erkin ifodalash va kommunikativ salohiyatni rivojlantirish imkonini beradi (Soatov, 2021: 55–58).

Tahlil natijalariga ko'ra, o'yin texnologiyalari va interaktiv mashqlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va yangi leksik hamda grammatik birliklarni amalda qo'llashga undaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarning nutq malakasi asta-sekin shakllanadi va ular og'zaki nutq kompetensiyasini amaliyotda qo'llay olishadi (Saydaliyeva, 2020: 12–18).

Ushbu natijalar asosida darslarni rejalashtirishda kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlarni uyg'un qo'llash boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun asosiy strategiya sifatida qaraladi.

Muhokama

Nutq faoliyati og'zaki va yozma shaklda **ro'yobga** chiqadi. Og'zaki nutq gapirish va tinglab tushunish, yozma nutq o'qish va yozuv turlaridan iborat.

Nutq faoliyatida operatsion (til materialini ishtiroki) va motivatsion (fikr bayoni) jihatlar aniqlangan. Leksika, grammatika va talaffuz birliklarini gapirish va yozuvda qo'llash, o'qish va tinglashda idrok etib tushunish nutqning operatsion aspektidir. Motivatsion aspektida retsiyent (gapiruvchi va fikrni yozma bayon etuvchi) va produtsent (tinglovchi va o'qib axborot oluvchi) o'z fikrini boshqalarga yetkazadi yoki o'z g'alar fikrini tushunib oladi.²⁵

Masalan, "Do'konda suhbat" mavzusidagi rolli o'yinda o'quvchilar sotuvchi va xaridor rollarini bajaradi. Ushbu faoliyat davomida ular savol berish, javob qaytarish, narx so'rash kabi nutqiy birliklardan foydalanadi. Natijada, o'quvchilarning og'zaki nutqi rivojlanadi, kommunikativ kompetensiyasi mustahkamlanadi va til materiallarini real vaziyatda qo'llash ko'nikmasi shakllanadi.

Shu tariqa, interaktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nutq faoliyatini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni ularning diqqat va e'tibor darajasi bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy nuqtayi nazardan, diqqat - bu ongning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda jamlanishidir. Diqqat alohida psixik jarayon sifatida emas, balki idrok, xotira, tafakkur, nutq va xayol kabi jarayonlarning samaradorligini ta'minlovchi ichki faollik sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois u barcha aqliy faoliyatning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

²⁵ Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.-431; – B. 45–47.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda topshiriq va vazifalarni moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv diqqatning barqarorligini ta'minlaydi, o'quv materialini o'zlashtirishni yengillashtiradi hamda bilish jarayonlarini faollashtiradi. Shuningdek, psixologik jihatdan idrok, xotira va motivatsiyaning uyg'unligi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va samarali natijalarga olib keladi.

Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga yangi so'zlarni o'rgatishda rasmlar asosida "Top va ayt" o'yini tashkil etiladi. O'qituvchi bir nechta predmet tasvirlangan kartochkalarni ko'rsatadi va o'quvchilardan kerakli so'zni topib, uni og'zaki ifodalashni so'raydi. Ushbu jarayonda o'quvchilar diqqatini muayyan obyektga jamlaydi, idrok orqali ma'lumotni qabul qiladi, xotira yordamida eslab qoladi va nutq orqali ifodalaydi. Natijada, ularning til ko'nikmalari bilan birga psixik jarayonlari ham kompleks rivojlanadi. O'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalari birgalikda rivojlanishi uchun ularning amaliy va nazariy ko'nikmalarini amalda tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Demak, diqqatni to'g'ri tashkil etish va psixologik xususiyatlarni hisobga olish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa

Boshlang'ich 1–2-sinf o'quvchilarida ingliz tilida yoki boshqa til o'rganish jarayonida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish va samarali metodlarni qo'llashga bevosita bog'liqdir. O'quvchilarni ko'nikmalarini shakllantirishda amaliy tarzda o'rgatish ko'nikmalarini tashkil qilish nazariy jihatdan o'rganganlarini amalda qo'llash orqali amalga oshiradi. Og'zaki nutqni shakllantirishda kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar, xususan interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, juftlik va guruhda ishlash, storytelling kabi usullar muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari -diqqat, xotira, idrok va motivatsiyani hisobga olish nutqiy ko'nikmalarni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularni real kommunikativ vaziyatlarga jalb etish va til materiallarini amaliy qo'llashga yo'naltirish ularning nutqiy faolligini oshiradi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam baholab borish hamda individual yondashuvni qo'llash ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash va ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim bosqichida ingliz tilini o'qitishda interaktiv va kommunikativ metodlarni tizimli qo'llash, shuningdek, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Soatov A.J. Diqqat va uning ta'limiy ahamiyati // Pedagogika va psixologiya masalalari. – Toshkent, 2018. – B. 45–49.
2. Saydaliyeva M.A. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlar // Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy maqolalari. – Namangan, 2020. – B. 12–18.
3. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.-431; – B. 45–47.
4. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide// International Journal of Scientific Researchers.-2024. Vol. 5, Issue 2. – P. 31–35.
5. Azimova, M. M. (2025). Ingliz tili o'rganayotgan o'quvchilarda leksik boylikni oshirishda metodik yondashuvlar va tushunchalar. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 49(1), 169–171. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/24878> DOI: <https://10.5281/zenodo.16281963>
6. Yuldashev Og'abek Komiljon o'g'li, Azimov Samandar Murodjon o'g'li. (2025). Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda metodik o'yinlarning ahamiyati. Лучшие интеллектуальные исследования, Vol. 54 No. 1. <https://journals.org/index.php/luch/article/view/2046>
7. Dehqanova, A. G., & Azimov, M. S. (2024). Axborot va uning mazmuni, axborotdalashish davrida xorijiy tillar va ularning axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati 214-219 Toshkent gumanitar fanlar universiteti,“. CURRENT ISSUES OF SCIENCE: PROBLEMS AND SOLUTIONS.
8. Saydaliyeva, M. A., & Azimov, S. M. (2025, November 18). The effective impact of educational technologies in organizing English language lessons. Образование, наука и инновационные идеи в мире, 81(3). <https://journals.org/index.php/obr/article/view/5633> <https://doi.org/10.5281/zenodo.17652336>
9. Dehkhonova, G. A. (2024). THE CLASSIFICATION OF LEXICAL UNITS WITH FINANCIAL POSITION ACCORDING TO SCIENTISTS VIEW. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 542-549.
10. Dehqanova, A. G., & Azimov, M. S. (2024). Axborot va uning mazmuni, axborotdalashish davrida xorijiy tillar va ularning axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati 214-219 Toshkent gumanitar fanlar universiteti,“. CURRENT ISSUES OF SCIENCE: PROBLEMS AND SOLUTIONS.
11. Dexkonova Guljaxon Ahmadjanovna. (2025). Improving the Activities of Teachers for Primary School Students Through Didactic Tools Based on The Experience of Developed Foreign Countries. International Journal of Pedagogics, 5(05), 14–16. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue05-04>